



## XALQ DEPUTATLARI BULUNG'UR TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 25 - yanvar

VI-53-18-7-93-K/22

Bulung'ur tuman hokimligi

### **Tuman hokimining 2021-yil 9-dekabrda 162-7-93-Q/21-sonli “Mahalla aholisini kasb-hunarga o‘qitish maskanlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta‘minlash, mahalla fuqarolar yig‘inlarida tashkil etilgan maskanlarga mablag‘lar ajratish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi PQ-5140-sonli “Ishchi kasblar bo‘yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida viloyat hokimining 2021-yil 1-dekabrda 168-7-Q/21-sonli qarori qabul qilingan.

Ushbu qaror asosida tuman hokimining 2021-yil 9-dekabrda 162-7-93-Q/21-sonli qarori qabul qilingan bo‘lib, mazkur qaror ijrosini ta‘minlash maqsadida tumandagi ishsiz aholini kasb-hunarga o‘qitish orqali ularni bandligini ta‘minlash maqsadida 7 ta mahalla fuqarolar yig‘inlarida maskanlar tashkil qilingan.

Ushbu maskanlar binolarini ta‘mirlash va zamonaviy jihozlar bilan ta‘minlash uchun mablag‘larni quyidagi jamg‘armalar hisobidan, shu jumladan, “Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi” mablag‘lari hisobidan Istiqlol mahallasidagi maskanga tikuvchilik yo‘nalishi uchun 35.0 mln so‘m, kompyuter savodxonligi yo‘nalishiga 30.0 mln so‘m, Uy xo‘jaligi xizmatchisi yo‘nalishiga 60.0 mln so‘m jami 125.0 mln so‘m ajratilgan va hozirgi kunda 48 nafar ishsiz fuqarolar o‘qitilmoqda. Soxibkor va Beshqo‘ton mahallalaridagi maskanlarga “Ayollar daftari” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 35,0 mln so‘mdan 70,0 mln so‘m, Saxovat va Mingchinor mahallalaridagi maskanlarga “Temir daftar” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 35,0 mln so‘mdan 70,0 mln so‘m, Elobod, Xo‘jamazgil mahallalaridagi maskanlarga “Yoshlar daftari” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 35,0 mln so‘mdan 70,0 mln so‘m, jami 210,0 mln so‘m

miqdorida mablag'lar ajratilishi ko'zda tutilgan. Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining LIII sessiyasi

### **QAROR QILADI:**

1. Tuman hokimining 2021-yil 9-dekabrda 162-7-93-Q/21-sonli qaror ijrosini ta'minlash, ishsiz aholini kasb-hunarga o'qitish orqali ularni bandligini ta'minlash maqsadida 7 ta mahalla fuqarolar yig'inlarida tashkil etilgan maskanlarga mablag'lar ajratish to'g'risidagi tuman Aholi bandligiga ko'maklashish markazi direktori B.Bosimovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (D.Xabibullayev) hamda Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi boshlig'i (A.Xazratqulov)larga qarorga asosan qolgan 6 ta maskanlarni o'quv asbob-uskunalari hamda zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash uchun "Ayollar daftari" jamg'armasidan 70,0 mln so'm, "Temir daftar" jamg'armasidan 70,0 mln so'm, "Yoshlar daftari" jamg'armasidan 70,0 mln so'm, jami 210,0 mln so'm miqdorida mablag'lar ajratilishini ta'minlasinlar.

3. Aholi bandligiga ko'maklashish markazi (B.Bosimov)ga har chorakda kasb-hunarga o'qitish maskanlarini tashkil etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan tuman hokimligiga axborot kiritib borish hamda ajratilayotgan mablag'larning maqsadli va manzilli sarflanishini ta'minlash yuklatilsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (A.Jabborov), "Bulung'ur hayoti" gazetasi (G'.Urolov)lar birgalikda tuman hokimining 2021-yil 9-dekabrda 162-7-93-Q/21-sonli qarori qabul qilingan bo'lib, mazkur qaror ijrosini ta'minlash maqsadida tumandagi ishsiz aholini kasb-hunarga o'qitish orqali ularni bandligini ta'minlash maqsadida 7 ta mahalla fuqarolar yig'inlarida maskanlar faoliyatiga oid ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borishni ta'minlasinlar.

5. Ushbu Qarorning qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (M.Nomazov), Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (M.Usanova) hamda tuman hokimining birinchi o'rinbosari (D.Xabibullayev) zimmlariga yuklatilsin.

Sessiya raisi



N.Mamadiyarova